



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 20 - yanvar

27-9-0-Q/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

Viloyatda 2023-yilda qo'llaniladigan davlatga tegishli ko'chmas mulklar ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 3-bandi uchinchi xat boshisi asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan kiritilgan, Moliya vazirligi va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan kelishilib taqdim etilgan 2023-yilda viloyatda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Viloyatda 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini 1-ilovaga, ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga, Radio, uyali aloqa va peydjeraloqasi uchun ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat mulkini balansda saqlovchilarining mansabдор shaxslari zimmasiga:

tasarrufida bo'lgan davlat mulkini yilning har choragida kamida bir marta xatlovdan o'tkazish;

foydalanilmayotgan davlat mulki to'g'risidagi ma'lumotlarni Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish viloyat boshqarmasiga o'z vaqtida

va to‘liq, shuningdek ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to‘g‘risida ishonchli axborot taqdim etish;

davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berilishiga, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va soni noto‘g‘ri qayd etilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalar yuklatilsin.

3. Viloyat hududida 2023-yilda davlat mulki bo‘lgan binolar va xonalarda joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijara to‘lovining nol stavkasi belgilab qo‘yilsin.

4. Mazkur qaror “Yangi Sirdaryo” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b



A.Mahmudaliev

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
27-9-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Sirdaryo viloyatida 2023-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara
to‘lovining eng kam stavkalari**

(bir yilga umumiy foydalanish maydoning 1 kv. metr uchun)

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari (so‘mda QQS bilan birga)	
		Viloyat markazi Guliston shahri uchun	Tuman va shaharlar uchun
Ishlab chiqarish			
1	Yoqilg‘i ishlab chiqarish	11 900	8 700
2	Kimyoviy ishlab chiqarish	11 900	8 700
3	Neft-kimyo sanoati	11 900	8 700
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	11 900	8 700
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
6	Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi	9 700	7 200
7	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	11 900	7 200
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
9	Metal konstruktsiyalar va mahsulotlar sanoati, payvandlash va chilangarlikning barcha turlari (tokarlik xizmati)	11 900	8 700
10	Mashina va uskunalarini ta’mirlash	11 900	8 700
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	11 900	8 700
13	Tamaka mahsulotlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
14	Asosiy farmotsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
15	Rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish	37 700	28 300
Qurilish sanoati			
16	Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik	9 700	7 200
17	Deraza, eshik va darvozalar, mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	35 900	26 600

18	Deraza, eshik va darvozalar, mebel ishlab chiqarish sanoati (plastik, alyumin va MDFdan)	63 000	37 300
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	11 900	8 700
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	11 900	8 700
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	37 700	28 300
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	26 700	20 050

O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz ishlab chiqarish sanoati

23	Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	11 900	8 700
24	Yog‘ochni qayta ishlash sanoati	11 900	8 700
25	Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati	11 900	8 700

Yengil sanoat

26	To‘qimachilik sanoati	11 900	8 700
27	Tikuvchilik sanoati	11 900	8 700
28	Charm, mo‘yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	11 900	8 700

Oziq-ovqat sanoati

30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go‘sht, yog‘-nishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	11 900	8 700
31	Go‘sht mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
32	Sut mahsulotlari sanoati	23 300	17 400
33	Baliq mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
34	Tegirmonchilik sanoati	11 900	8 700
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	9 700	7 200
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	11 900	8 700

Sanoatning boshqa tarmoqlari

38	Tibbiyat sanoati	11 900	8 700
39	Poligrafiya sanoati	29 200	25 000
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo‘yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	14 600	10 600

Qishloq xo‘jaligi

41	O‘simlikshunoslik (1 hektar yer maydoni uchun)	4 798 000	3 559 100
42	Issiqxona xo‘jaligi	9 000	8 000
43	Chorvachilik va parrandachilik	5 700	4 300
44	Baliqchilik (shu jumladan sun’iy maydon) (1 hektar uchun)	4 798 000	3 559 100
45	Asalarichilik (1 hektar yer maydoni uchun)	3 119 000	2 313 600
46	Veterinariya xizmatlari	11 900	8 700
47	Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tashkilotlar	11 900	8 700

48	O‘rmon xo‘jaligi (shu jumladan bog‘lar) (1 hektar yer maydoni uchun)	4 798 000	3 559 100
Transport va aloqa			
49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to‘xtash joylari va garaj)	11 900	8 700
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 000	2 400
51	Avtomobilarni yuvish	38 500	25 100
52	Avtomobilarga yonilg‘i quyish (benzin, dizel)	38 500	32 400
53	Avtomobilarga yonilg‘i quyish (gaz quyish shoxobchalar)	46 800	35 100
54	Elektromobilarni quvvatlash shoxobchalari	20 400	15 300
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	21 620	16 200
56	Pochta aloqasi	11 900	8 700
57	Kuryerlik aloqasi	24 000	17 700
58	Elektr-simli aloqa	24 000	17 700
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	100 800	74 800
Savdo va umumiyl ovqatlanish			
60	Ulgurji savdo	33 600	25 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do‘konlari	86 300	63 900
62	Chakana savdo	33 600	25 000
63	Umumiyl ovqatlanish	33 600	25 000
64	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	52 600	36 100
65	Kitob do‘konlari	4 700	3 600
66	Lombardlar	43 400	32 200
Xizmat ko‘rsatish			
67	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo‘jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	33 600	25 000
68	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko‘rsatish (nusxa ko‘chirish xizmati)	33 600	25 000
69	Kompyuter o‘yinlarini tashkil etish	50400	37500
70	Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq munosabatlar	33 600	25 000
71	Reklama, ko‘rgazmalar xizmatlari	33 600	25 000
72	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	60 000	44 300
73	Mehmonxona xo‘jaligi	38 400	28 400
74	Umumiyl yashash joylari	29 900	21 700
75	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	19 320	14 260

76	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	28 900	21 700
77	Hammomlar va xojatxonalar	57 800	42 800
78	Saunalar va basseynlar	115 200	85 500
79	Paxta (ilgari istemolda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	19 300	14 200

Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot

80	Sog'liqni saqlash	24 000	17 700
81	Tibbiy logistika xizmati (shu jumladan laboratoriya)	44 200	33 200
82	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	24 000	17 700
83	Fitobar	16 600	12 300
84	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	38 400	28 400
85	Jismoniy tarbiya va sport	11 900	8 700
86	Dorixonalar	19 300	14 200
87	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	40 400	22 500
88	Ijtimoiy-dorixonalar	17 100	11 500

Ta'lim

89	Oliy va o'rta-maxsus ta'lifi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	19 320	14 200
90	O'quv kurslarini tashkil etish (repetitorlik)	39 600	29 700
91	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	15 065	11 615
92	Bolalar umum ta'lif maktablari (nodavlat ta'lif muassasalar uchun)	9 700	7 245
93	Oliy va o'rta maxsus ta'lif muassasalarida umumiy ovqatlanish	23 400	22 500
94	Umumiy o'rta ta'lif maktablarida umumiy ovqatlanish	11 900	8 700
95	Maktabgacha tarbiya muassasalar (nodavlat ta'lif muassasalar uchun)	8 500	6 600
96	Madaniyat va san'at	33 600	25 000
97	Ko'rgazmalar	25 900	20 100
98	Madaniyat va dam olish bog'lari	24 000	17 700
99	Botanika bog'lari va Zooparklar	24 000	17 700
100	Televideniyalar va radioeshittirishlar redaktsiyalari	24 000	17 700
101	Kinostudiylar, ovoz yozish studiyalari	38 400	28 405
102	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	14 600	10 600
103	Avtomaktablar	21 300	12 600

Moliya-kreditlash faoliyatilari

104	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	33 600	25 000
-----	--	--------	--------

105	Auditorlik faoliyati	33 600	23 400
106	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo‘yicha maslahatxonalar	33 600	25 000
107	Bank faoliyati	33 600	25 000

Faoliyatning boshqa turlari

108	Sug‘urta va notarial xizmatlar	33 600	25 000
109	Sud va yuridik xizmat muassasalari	28 900	21 700
110	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	28 900	21 700
111	Jamoatchilik birlashmalari	9 700	7 000
112	Omborxonalar	33 600	25 000
113	Davlat tashkilotlariga ofis	14 600	10 600
114	Xususiy tashkilotlarga ofis	52 600	39 100
115	Arxiv xizmati	14 600	8 900
116	Tahririyat va nashriyotlar	19 300	14 200
117	Metalalom va ikkilamchi qog‘oz (latta) mahsulotlari to‘plash joylari	19 300	14 200
118	Turar joy kommunal xo‘jaliklari	19 300	14 200
119	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagি transport vositalarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish	38 400	28 400
120	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	29 200	21 900
121	Laboratoriylar	24 000	17 700
122	Turli xizmat turlari to‘lovlar (paynet)	96 400	71 400
123	Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do‘konlari	52 600	39 100
124	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	46 100	34 200
125	Hunarmandchilik turlari bo‘yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o‘ymakorlik, rassomchilik, do‘ppido‘zlik, telpak, cho‘girma, chopon va h.k)	28 400	21 300
126	Aviakassalar (shu jumladan temir yo‘l, avtotransport va boshqalar)	52 600	39 100
127	Bankomatlar	480 800	356 600
128	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	33 600	21 700

Izox:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi yig‘ilish bayonining (30.06.2009 y. №7/10-41) 11-bandiga muvofiq, Qishloq vrachlik punktlari huzurida faoliyat yuritayotgan mulkchilik shaklidan qat’iy nazar dorixona muassasalariga davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘loving “nol” stavkasi qo‘llaniladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 22-noyabrdagi 02/1-74-soni

topshirig‘iga asosan yopiq harbiy shaharchalar, harbiy qismlar va muassasalar hududida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining savdo boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalari uchun ko‘chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqqining "nol" stavkasi qo‘llaniladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 834-sonli qarori muvofiq, davlat mulki, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki obyektlari O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi a’zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara to‘loving "nol" stavkasi asosida beriladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan 2018-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to‘loving "nol" stavkasi asosida ajratiladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-avgustdagи 609-20-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi bino-inshootlar, asosiy vositalar va boshqa mol-mulklarni vazirlik tizim tashkilotlariga ijara shartnomasi asosida berilganda ijara to‘lovi “nol” minimal stavkada qo‘llaniladi.

- Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim muassasalarini va umumiyligini o‘rtalik maktablar hududi (ichkarisi)da joylashgan obyektlarni (balansda saqlovchi va ijaraga oluvchilarining xodimlari yoki ta’lim oluvchilar uchun xizmat ko‘rsatadigan oshxona, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqa faoliyatlar bo‘yicha) ijara xaqi xisoblashda yozgi ta’til davri uchun oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim muassasalarida 2 (ikki) oy va umumiyligini o‘rtalik maktablarida 3 (uch) oy muddatga ijara to‘lovlarini chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbusi bilan ijara haqni hisoblanishi mumkin.

- Davlat ulushi mavjud korxona va tashkilotlar mulklari, yotoqxona sifatida foydalananiladigan mulklar, maxsus ruxsat talab etiladigan davlat mulklari, faoliyat turini o‘zgartirib bo‘lmaydigan davlat mulklari e-ijro auktsion tanlovisiz uch tomonlama ijara shartnomasi rasmiylashtirilishi mumkin.

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
27-9-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Ijara haqining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar

I Hududiy zonalar koeffitsienti – (Kz)			
Guruhlar raqami	Hududlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsienti
1	Guliston shahri	I	3,0
2	Sirdaryo shahri Yangiyer shahri Baxt shahri Shirin shahri	II	2,6
3	Oqoltin tumani Sirdaryo tumani (boshqa hududlari)	III	2,3
4	Sardoba tumani Sayxunobod tumani Guliston tumani	IV	2,2
5	Boyovut tumani Mirzaobod tumani Xovos tumani	V	2,0

II Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsienti – (Kk)

2.1	Alohiba turgan bino	1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan	1,4
2.3	Binoning ustki qismi, cherdak, bolaxona	0,9
2.4	Yarim yer to'la, yer to'la	0,7
2.5	Betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar	0,8

III. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kx)

3.1	Yer maydonidan foydalanganda va yer maydoni mavjud bo'lganda	0,8
-----	--	-----

IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsienti – (Ko)

4.1	Asosiy qatnov yo'llarida joylashganda	0,6
4.2	Ikkinchidagi darajali transport qatnovi yo'llarida joylashganda	0,5

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 10-bandiga muvofiq, mol-mulkning boshqa turlari uchun ijara to'lovi stavkasini hisoblashda, agar ijaraga topshirilayotgan mulkdan amalda foydalanilgan muddat, undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lmasa yoki ushbu muddatda teng bo'lsa, yoki amalda foydalanilgan muddatni aniqlash mumkin bo'lsa — ijara to'lovi stavkasi mol-mulk tiklanish qiyomatining 30 foizidan, agar ijaraga topshirilayotgan mol-mulkdan amalda foydalanilgan muddat

undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo‘lsa — ijara to‘lovi stavkasi mol-mulk tiklanish qiyomatining 20 foizidan kam bo‘lishi mumkin emas.

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
27-9-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

**Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi uchun
ijara haqining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar**

I Hududiy zonalar koeffitsienti – (Kz)

Guruhlar raqami	Hududlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsienti
1	Guliston shahri Sirdaryo shahri	I	2,5
2	Yangiyer shahri Baxt shahri Shirin shahri	II	2,0
3	Oqoltin tumani Sirdaryo tumani Boyovut tumani Guliston tumani Sayxunobod tumani	III	1,8
4	Sardoba tumani Mirzaobod tumani Xovos tumani	IV	1,5

II Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsienti – (Kq)

2.1	Alohiba turgan bino	1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan	1,4
2.3	Binoning ustki qismi, cherdak, bolaxona	0,5
2.4	Yarim yer to'la, yer to'la	0,7
2.5	Betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar	0,8

III. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kh)

3.1	Yer maydonidan foydalanganda va yer maydoni mavjud bo'lganda	0,5
-----	--	-----

IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsienti – (Ko)

4.1	Asosiy qatnov yo'llarida joylashganda	0,6
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yo'llarida joylashganda	0,5

* Radio, uyali va peydjing aloqa antenna va boshqa texnik qurilmalar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori antenna yoki boshqa texnik qurilmalarni tortqich qoziqlari egallagan umumiy maydon bo'yicha hisoblanadi.

Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi)

hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts = Es \times Kz \times (Kq + Kh + Ko)$$

Bunda:

Ts-bir yilga bir kv.m. uchun ijara to‘lovining tayanch stavkasi: **Es**—bir yilga bir kv.m. uchun eng kam ijara stavkasi.